

**MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA SAVOD O'RGATISH****Karimova Navbaxar Mahmudjanovna****Ixtisoslashtirilgan Maktabgacha Ta'lim Tashkiloti (ko'p tarmoqli) Horazm viloyati****Gurlan tumani 9-son IMTT TARBIYACHISI****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14272062>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilariga barkamol avlod tarbiyasida nutqni to'g'ri shakllantirish yo'llari va savod o'rganishda og'zaki nutqni yaxshi rivojlantirish, muloqot qila olishga o'rgatish jarayonlari yuzasidan o'rganilgan adabiyotlardan olingan bilimlar asosida bilim va tavsiyalar beriladi.

**Аннотация:** В данной статье освещается роль воспитателей дошкольных образовательных организаций в воспитании гармонично развитого поколения. Особое внимание уделено формированию правильной речи, развитию устной речи и обучению детей эффективному общению. На основе изученной литературы даны рекомендации и полезные советы

**Annotation:** This article highlights the role of preschool education teachers in raising a well-rounded generation. Special attention is given to developing proper speech formation, improving oral communication skills, and teaching children effective interaction. Recommendations and insights are provided based on the study of relevant literature.

**Kalit so'zlar:** savodga o'rgatish, nutqni oshirish, muloqot, intellektual salohiyatli, erkin fikrlash, ijodiy-rivojlantiruvchi muhit, tayyorgarlik davri, og'zaki nutq.

**Ключевые слова:** обучение грамоте, развитие речи, общение, интеллектуальный потенциал, свободное мышление, творческо-развивающая среда, подготовка.

**Keywords:** literacy teaching, speech development, communication, intellectual potential, free thinking, creative developmental environment, preparation.

**KIRISH**

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning rivojlanishi inson hayotidagi eng muhim davrlardan biridir. Shu davrda bolalarning aqliy, jismoniy va ruhiy rivojlanishi qizg'in sur'atda kechadi. Aynan shu jarayonda savod o'rgatish jarayoni ham boshlanib, bu bolalarning maktab ta'limiga muvaffaqiyatli tayyorlanishiga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida savod o'rgatishning maqsadi nafaqat harf va so'zlarni tanitish, balki bolalarda nutq madaniyatini rivojlantirish, ijodkorlik va mustaqil fikrlashni shakllantirishdir.

Bu jarayon bolalarning maktab ta'limiga psixologik va aqliy tayyorgarligini ta'minlashga, ijtimoiylashuv va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bolaning dastlabki yoshlaridan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrofdagi narsalarga munosabatini shakllantirishning asosi hisoblanadi. O'zlashtirilgan bilimlar va rivojlangan aqliy qobiliyatlarni bolalar xilma-xil o'yinlarda va mehnatda qo'llaydilar. Bularning hammasi bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir etadi, unda faoliyatning yangi mazmuniga qiziqishni shakllantiradi. Maktabgacha yosh davridagi ehtiyojlar, his tuyg'ular, sabablar, maqsadlarni tarbiyalash va rivojlantirish shu darajaga yetadiki, u bolaga maktabdagi muntazam o'qishga o'tish imkonini beradi.

Savod o'rgatish jarayonida metodik yondashuv va bolalarning qiziqishlari hisobga olingan holda ish olib borish muhimdir. Bu esa keyingi ta'lim bosqichlariga muvaffaqiyatli o'tishni ta'minlaydi.

Bu davrda Savod o'rgatish jarayonining bir necha bosqichlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **1. Tayyorlov bosqichi**

Bu bosqichda bolalar o'yin va mashg'ulotlar orqali nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Masalan:

So'zlarni bo'g'inlarga bo'lish;

Tovushlarni ajratish va farqlash;

Harflar shakli va tovushini bir-biriga bog'lash.

### **2. Boshlang'ich savod o'rgatish bosqichi**

Harflar va ularning tovushlarini o'rgatish.

Oddiy so'zlarni tanitish va yozish.

She'rlar, ertaklar va qisqa hikoyalarni tinglash va takrorlash orqali bolalarning nutqini boyitish.

### **3. Amaliy bosqich**

Bolalar so'zlardan iborat oddiy matnlarni o'qish va tushunishni o'rganadilar. Yozma mashqlar bajarish orqali qo'l motorikasini rivojlantiradilar.

#### **1. O'yin usullari**

Bolalar bilan o'tkaziladigan o'yinlar o'qish va yozishni qiziqarli tarzda o'rgatishga yordam beradi. Masalan:

"Harf top" o'yini;

"So'z yasash" o'yini.

#### **2. Vizual va eshituv usullari**

Harflarni shakllar, rangli rasmlar, maxsus video va audio materiallar orqali o'rgatish samaradorligini oshiradi.

#### **3. Jamoaviy va individual yondashuv**

Bolalar birgalikda ishlashni o'rganishlari bilan birga, har bir bolaning rivojlanish darajasiga mos dastur ham qo'llaniladi.

#### **4. Ijodiy metodlar**

Bolalarni o'z fikrlarini ifodalashga o'rgatish uchun rasm chizish, hikoya yaratish kabi mashg'ulotlar tashkil qilinadi.

Kichik maktab yoshida asosiy narsa o'qish bo'lib qoladi va uni bolalar ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyat sifatida tushinadilar. Bolaning jamiyatdagi yangi mavqei o'z xatti - harakatini va tengdoshlarining xatti-harakatini o'zgacha nuqtai nazardan- maktab o'quvchisi nuqtai nazaridan baholashni shart qilib qo'yadi. Bola faollik, ijodkorlik ko'rsatib, kattalarning uning xulq-atvori va faoliyatiga qo'yayotgan tobora murakkablashib borayotgan talablarini bajarishga intiladi.

### **Xulosa**

Maktabgacha ta'lim muassasalarida savod o'rgatish bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning muhim bosqichidir. Bu jarayonda bolalar nafaqat o'qish va yozishni o'rganadilar, balki ijodkorlik, muloqot va mustaqil fikrlash kabi qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Shuning uchun bu jarayonni bolalarning yosh xususiyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda, metodik jihatdan puxta tashkil qilish muhimdir. Mazkur jarayonning sifatli tashkil etilishi kelajak avlodning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261 sonli qarori .-T.: 2018-yil 9-sentyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. Sodiqova SH. A. "Maktabgacha pedagogika" Fan va texnologiya. T.:2017-yil.
4. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o 'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Science and Education, 3(12), 590-592.

